

faqat cho'l va sahrolar qoladi. Bu so'zlar zaminida tabiatga bo`ladigan munosabat nihoyatda ehtiyotkorlik bilan bo`lishi kerakligini va tabiat qonunlarini chuqur bilib harakat qilish zarurligini anglatadi. Bunga yaqqol misol, sovet tuzumining paxta yetishtirishni yangi yerlarni o`zlashtirish hisobiga ko`paytirish siyosati Orol dengizini qurib borishiga olib keldi. Energetikani boshqarishda faqat texnik aspektlar asosida emas balki bioekologik va u bilan uzviy bog`langan holda ijtimoiy – siyosiy aspektlarni ham hisobga olish kerak bo`ladi. Zamonaviy texnik vositalar (kibernetik usullar, axborotlarni yig`ish va uzatish, EHM ni qo'llash, mikroprosessor texnikasi va h. k.) energetikani boshqarishda katta imkoniyatlar yaratmoqda. Albatta bu imkoniyatlardan keng foydalanish jamiyatning ijtimoiy – siyosiy va iqtisodiy rivojlanish darajasiga ta'siri katta bo`ladi. Elektr energiya ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash Italiya, Fransiya, va Buyuk Britaniya kabi sanoati rivojlangan mamlakatlarda natsionalizatsiya qilingan bo`lsa, AQSh kabi ishlab chiqarish yuksak rivojlangan davlatda esa xususiy kompaniyalarga qarashlidir. Energetika tizimini boshqarishnmng har ikkala usulining ham yaxshi va yomon tomonlari mavjuddir. Har bir davlat o`zining xususiyatlari va imkoniyatlaridan kelib shiqliqan holda energetika tizimini boshqarishda u yoki bu boshqarish usulini qo'llaydi. Energetikaning atrof muhitga ta'siri uzlusiz oshib bormoqda. Bu Yer yuzida inson yaratayotgan energetik qurilmalarning quvvati va tabiatda sodir bo`ladigan geofizik hodisalarning quvvatlari miqdorlarining o`zaro yaqinlashib qolganligi bilan bog`liqdir. Atrof muhitni ifloslashtirishning energetika uchunquyidagi: mexanik, kimyoviy, radioaktiv, issiqlik, ionizatsion, elektromagnit, shovqun turlari xarakterlidir. Energetik qurilmalarning texnik inshoatlari atrof muhitning o`simlik dunyosini o`zgarishiga katta ta'sir qiladi va ma'lum ma'noda estetik ifloslanishni yuzaga keltiradi. Energetikada texnologik jarayonlar uchun ko`p suv sarfi talab qilinadi. Energetika inshoatlarini qurish uchun katta yer uchastkalari kerak bo`ladi; yoqig`i yoqish uchun kislorod kerak bo`ladi, yoqish jarayonida is gazi hosil bo`ladi va bu gaz atmosferada parnik effekti deb ataladigan effektni yuzaga keltiradi (yer yuzasida issiqlikning uzoq vaqt ushlanib turishi ta'sirida). Inson faoliyatining salbiy natijalaridan biri bu sanoat chiqindilarining yig`ilishidir. Sanoatdagi ishlab chiqarish chiqindilari halokatli ravishda oshib bormoqda. Masalan, AQSh da bir yil davomida 12 mln.tonna temir, 1 mln.tonna alyuminiy va 60 mln. tonna qog`oz chiqindilari; 48 mlrd. konserva bankalari va 6 mln. xizmat muddati tugagan avtomobillar yig`iladi. Kul va shlaklar ham energetikaning chiqindilariga kiradi. Suv iste'moli uzlusiz o'shib bormoqda. Agar XY – XY1 asrlarda har bir odam bir kunda 15 litrgacha suv iste'mol qilgan bo`lsa, hozirga kelib bu ko`rsatkish 150 – 600 litrgasha o'shdi. Hozirda energetikaning ehtiyojlari uchun har sekunda 40 ming m 3 suv sarf bo`lmoqda va sanoatning boshqa sohalari uchun esa bu ko`rsatkich 10 ming m 3 ni tashkil etmoqda. Energetika va sanoat ehtiyojlari uchun ishlatiladigan suv miqdorini kamaytirish uchun zarur choralar ko`rish kerak bo`ladi. Suv iste'molining yopiq yoki aylanma tizimlariga o'tkazish suv sarfini kamaytirishga olib keladi. Elektroenergetik qurilmalar atrof muhitni asosiy ifloslantiruvchi manbalardan biridir (umumiy ifloslanishning taxminan 15% shu qurilmalarga to`g`ri keladi). AQSh ning yiliga ekologiya buzilishidan ko`raligan zarari 17 milrd. dollarni tashkil etsa, bularning 50%

ini issiqlik elektr stansiyalarida hosil bo`ladigan va havoga uchib chiquvchi oltingugurt birikmali, 20% ini azotli birikmalar, 25% ini og`ir zarrachalar tashkil etadi. AQSh ning 3 mingta issiqlik elektr stansiyalari bir kunda 500 mln.m<sup>3</sup> dan ko`p suv ishlataladi. Issiq holatdagi ishlataligan suv tabiiy daryo va suv havzalariga oqiziladi va ularda issiqlik ifloslanishini yuzaga keltirib, o`simplik va hayvonat olamining tabiiy sharoitlarini buzadi. AQSh da va shuningdek barcha sanoati rivojlangan davlatlarda ham suvning issiqlik ifloslanishi muammosi eng asosiy ekologik muammolardan biridir. Atom elektr stansiyalari oddiy issiqlik elektr stansiyalariga qaraganda qariyb ikki barobar ko`p suv iste'mol qiladi. Texnik inshoatlar atrof muhitning estetik ko`rinishiga ham sezilarli ta'sir qiladi. Italiya, Fransiya, Avstriya, Gresiya va boshqa turizm yaxshi rivojlangan mamlakatlarda atrof – muhit landshaftini iloji boricha o`zgartirmaslik va turistlarning mamlakat to`g`risidagi ta'surotlarini buzilishiga yo`l qo`ymaslik uchun energetika inshoatlarining ma'qul konstruksiyalarini loyihalash va yaratish muammolarini yechishga to`g`ri kelmoqda. Tarixiy obidalarga boy bo`lgan O`zbekistonda ham turizmning keng rivojlanishi energetikaning bu muhim muammosini yaqin kelajakda hal etishga kirishilitabiyy. Energetika havflimi? Har qanday texnik qurilma va xatto xonadagi oddiy elektr sim bo`ladimi, ayniqsa turli elektr stansiyalar, bular ichida ayniqsa atom elektr stansiyalari ham so`zsiz albatta havflidir. Bu texnik inshoatlarning havfsiz ishlashi uchun ularni barcha havfsizlik choralarini ko`rgan holda loyihalash va to`g`ri ishlatila bilish kerak. Turli qurilma va texnik moslamalarning inson uchun nisbatan qanchalik havfli ekanligini solishtirib tahlil qilamiz. Statistik ma'lumotlar shuni ko`rsatadiki, inson uchun eng havfli texnik qurilma bu avtomobil ekan. Bu transport vositasi turidan foydalanuvchi million kishiga to`g`ri keladigan o`lim bilan tugaydigan holatlar eng ko`p ushraydi. Elektr stansiyalarning havflilik darajasi tramvaylarning insonlar uchun qanday havf tug`dirishi darajasi bilan barobardir. Elektr stansiyalar deyarli havfsiz bo`lsa ham, ammo ularning salbiy ta'sirlari bilan hisoblashishga to`g`ri keladi. Avariya holatlarida atrof muhitga chiqarib tashlanayotgan tabiat va insonlar uchun havfli bo`lgan chiqindilarning miqdori oshib ketishi mumkin. Atom elektr stansiyalari normal ish rejimida ishlayotganida deyarli to`liq havfsiz bo`lsa ham avariya holatlari yuzaga kelganida atrof muhitning ifloslanish darajasi keskin oshib ketadi va insonlarning hayoti havf ostida qolishi mumkin.. Masalan, 1986 yili Chernobil atom elektr stansiyasida (Ukraina) sodir bo`lgan avariya natijasida elektr stansiya atrofidagi katta xududda radiatsiya miqdori normal sharoitdagiga nisbatan bir necha ming marta oshib ketdi va bu xududda insonlarning normal yashashlari uchun katta havf yuzaga keldi. Chernobil AES ida reaktorlardan birining ishdan shiqishi natijasida ko`plab radioaktiv moddalarning atrof – muhitga chiqishi kuzatilgan. Juda katta xudud radioaktiv moddalar bilan zaxarlandi. Bu avariyaning asosiy sababi atom elektr stansiyani qurish uchun loyihalash paytida avariya sodir bo`lishi mumkin bo`lgan holatlar to`liq tahlil qilinmaganligi sabab bo`ldi. Hozirda bu atom elektr stansiyasi butunlay yopilgan. Atom elektr stansiyalarida sodir bo`lishi mumkin bo`lgan avariya holatlarining aksariyati yoqilg`ini transportirovka qilishda va radiaktiv chiqindilarni utelizatsiya qilishda ro`y berishi mumkin. Barcha avariya holatlarini hisobga

olgan holda, atom elektr stansiyalarini loyihalash, ularni ekspluatatsiya qilishda havfsizlikning barcha jihatlarini hisobga olish va xizmat qiluvshi texnik xodimlarning malakaviy darajasining yuqori bo`lishi bu stansiyalarning normal ishlashini ta'minlaydi. Magnit maydonining tabiatga va insonlarga ta'siri qanday? Kuchlanishi 600 – 750 kV bo`lgan yuqori kuchlanishli katta quvvatli nim elektr stansiyalarni ekspluatatsiya qilish vaqtida kuchli magnit maydonlarning inson sog`lig`iga salbiy ta'sir etishi kuzatilgan. Insonning davriy qaytarilib turadigan elektromagnitli nurlanish ta'siri ostida bo`lishi, insonda elektromagnit energiyaning yig`ilib qoluvchi effektini (kumulyativ) yuzaga keltiradi va bu fizik hodisaning insonga qanday ta'sir qilishi hali to`liq o`ranilmagan. Katta qiymatli kuchlanganlikka ega elektr maydonning inson organizmiga ta'sirini kamaytirish uchun alohida maxsus himoya vositalari, jumladan himoya ekranli korjomalar, maydon ta'sirini kamaytiruvchi po`lat simli to`rlar va boshqa turdagи himoya vositalaridan foydalaniladi. Katta shaharlarda shundoq ham foydalaniladigan yer uchastkalarining tanqislligi va shaharlarning ko`rkini buzishini hisobga olib, nim elektr stansiyalardan elektr energiyani sanoat korxonalariga uzatish elektr uzatish liniyalari orqali emas balki yer ostidan o`tkaziladigan kabellar yordamida amalga oshirilmoqda. Kelajakda o`ta o`tkazuvchanlik xususiyatiga ega bo`lgan kriogenli elektr uzatish liniyalaridan foydalanish ko`zda tutilmoqda. Bu elektr uzatish liniyalarining elektr qarshiliklari deyarli nolga tengdir. Bu esa o`z navbatida elektr uzatish liniyalarida kichik qiymatli kuchlanishlardan foydalanish imkonini beradi va natijada katta xududlarni egallab turgan ochiq yer yuzida qurilgan nim elektr stansiyalarni bir necha marta kichraytirish hamda yopiq va izolyatsion gaz bilan to`ldirilib, yer ostiga joylashtirish mumkin bo`ladi. Elektr stansiyalarni qanday joylarga qurish kerak? Elektr stansiyalarning atrof – muhitga salbiy ta'sirini hisobga olgan holda mamlakatning qaysi xududida qurilishi kerakligi aniqlanadi. Sifati past bo`lgan yoqilg`ida ishlaydigan issiqlik elektr stansiyalarining atrof – muhitni zaharli chiqindilar bilan ifloslanish sur`ati yuqori bo`lgani uchun bunday stansiyalar katta aholi yashaydigan joylardan yiroqda, ko`mir zahiralari topilgan konlar yaqinida qurilishi lozim. Ba`zi mamlakatlarda elektr stansiyalarning atrof muhitga zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida dengiz va okeanlarda qurish mo`ljallanmoqda. Masalan, AQSh va Yaponiyada katta quvvatli issiqlik va atom elektr stansiyalarini materikdan 5 – 30 km uzoqlikdagi okean sathida qurish loyihalari ishlab chiqilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Ф.Р.Норхуджаев, А.А.Мухамедов, А.М. Тешабоев, Ж.М.Усмонов, С.Т.Пармолов. Термоциклическая технология упрочнения углеродистых и низколегированных инструментальных сталей // Композиционные материалы. 2020. - №4. – С.125-129 (05.00.00 №13).
2. Ф.Р.Норхуджаев, А.А.Мухамедов, Д.М.Эргашев, Р.Ф Норхужаева, А.М. Тешабоев. Влияние режимов термоциклическая обработка на структурообразование инструментальных стальах // Композиционные материалы. 2021. - №1. – С.75-77 (05.00.00 №13).
3. Ф.Р.Норхуджаев, Д.М.Эргашев, А.М. Тешабоев. Упрочнение режущих сегментов аппаратов уборочных машин // Композиционные материалы. 2021. - №2. – С.92-93 (05.00.00 №13).
4. Norkhudjaev.F.R., Juraev M.A., Muminova.D.S., Teshaboyev A.M. Development Technology for Increasing Durability and Longevity of Soil-processing Working Bodies // International Journal of Advanced Science and Technology Vol 29.No.7.[2020] pp.9285-9291.
5. Norkhudjaev.F.R., Mukhamedov A.A., Teshaboyev A.M., Usmonov J.M., Parmonov S. T. Resource-saving manufacturing technologies and thermal hardening of machine parts and tool // International journal of Mechatronics and Applied Mechaniccs, 2021, Issue 9 [2021] pp. 137-145.
6. Турсунова Н.Н. First and measures organization. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology (IJIERT). Volume 7 – Issue 4, April 2020. P. 243-245.
7. Турсунова Н.Н. Загрязнение воздушного пространства – угроза экологической безопасности в Узбекистане. “Техника и технология пищевых производств” Материалы XII Международной научно-технической конференции (Могилёв, 19–20 апреля 2018 года) Том 2, с. 425-426.
8. Tursunova N.N. International Journal of Advanced Science and Technology. Volume 29, №7 2020. P.11764- 11770 (<http://sersc.org/journals/index.php/IJAST/article/view/27848>).

## O'QITUVCHI FAOLIYATIDA KASBIY MAHORAT VA IJODKORLIK SIFATLARI

Xamdamova Yorqinoy  
*Farg'onan ICHSHUI kasb-hunar maktabi*  
*Maxsus fan o'qituvchisi*

**Annotasiya:** Bugungi kunda o'qituvchi faoliyatida kasbiy mahorat va ijodkorlik sifatlari xaqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kasbiy mahorat, ijodkorlik sifatlar, ijodiy salohiyat, progressivlik, pedagogik madaniyat, insonparvarlik.

Hozirgi bosqichda kasb-hunar maktab ta'lim muassasalari yetuk shaxslarni tarbiyalash va barkamol avlodni yetishtirishda muhim ahamiyatga ega bo'g'in sanaladi. Kasb-hunar maktab ta'lim muassasalari ma'naviy-axloqiy, ilmiy ishlab chiqarish sohasi bo'lib, uning mahsuli nafaqat yangi bilimlarni, yangi maqsadlarni, yangi qadriyatlarni va shaxsiy ma'nolarni egallash, balki o'qituvchining muhim kuchlarini ochib berish va rivojlantirishdir, uning intellektual, axloqiy va ijodiy salohiyatini ko'rsatib berishdan iborat.

Ijodiy salohiyat - bu shaxsning o'zini o'zi anglashga yo'nalishini, tayyorligini va qobiliyatini belgilaydigan ijodiy faoliyatning zaruriy sharti va natijasi bo'lgan shaxsning dinamik, integrallangan xususiyati sanaladi.

Zamonaviy ilm-fan asosida insonning mavjudot sifatida tushunchasi yotadi. Insonning dunyoning transformatori, yangi munosabatlarni yaratuvchisi va o'zi sifatida mohiyati aynan ijodiy faoliyatda namoyon bo'ladi. Ijodkorlik elementlari insonning har qanday faoliyatida mavjud bo'lganligi sababli, odamlarning ijodkorligi nima uchun juda xilma-xil va ko'p qirrali ekanligini va nima uchun, ijodiy muammo qayerda paydo bo'lishidan va kim tomonidan hal qilinishidan qat'iy nazar - olim yoki o'qituvchining turli faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Ijodiy faoliyatning universal namoyon bo'lishi haqidagi fikrlar ko'plab tadqiqotchilarning asarlarida mavjud.

L.S.Vigotskiyning fikriga ko'ra, "Atrofimizdagi kundalik hayotda ijod mavjudlikning zaruriy shartidir". Lerner ijodkorlikni sifat jihatidan yangi va o'ziga xos narsalarni yaratadigan faoliyat sifatida belgilab, ijodkorlikka o'qitish erishib bo'lmaydigan muammolar echimini mustaqil izlash vositasini yaratishini va o'z-o'zini rivojlantirish va o'z-o'zini tarbiyalashni rag'batlantirish ekanligini ko'rsatadi. L.M.Popov ijodkorlikning boshlanishini tirik materianing aks ettirish qobiliyatidan ko'radi. Inson ko'p o'Ichovli, ko'p ob'ektli dunyo va uning ichki dunyosini aks ettirish va o'zaro aks ettirish jarayonida mustaqil ravishda faol ishtirok etadi. Faylasuf S.S. Goldentricht, ijodning mohiyati insonga dushmanlik qiladigan faoliyat bilan mos kelmaydi. U ijodkorlikni inson faoliyatining o'ziga xos turi sifatida tahlil qilishda u "progressivlik" belgisiga e'tibor qaratadi va "ijodiy harakatning mohiyati bu yaratilish, inson va jamiyat rivojiga hissa qo'shadigan yangi progressivning tug'ilishi"

ekanligini ta'kidlaydi. Haqiqiy ijod inson shaxsiyatining rivojlanishiga, insoniyat madaniyati rivojiga olib kelishi shart.

#### Muhokama va natijalar

Kasb-hunar maktab ta'lif muassasasi ma'muriyatining vazifalaridan biri qulay axloqiyopsixologik iqlim, ijodiy o'zaro hamkorlik va hamkorlik muhitini yaratishdir. O'qituvchilarning ijodiy mehnat jamoasi o'quvchilar bilan yuqori darajadagi o'quv ishlarini, ijodiy shaxsni shakllantirishni ta'minlashga qodir.

A.S.Makarenko ijodiy ish olib boruvchi yaxshi muvofiqlashtirilgan pedagogik jamoaga alohida ahamiyat berib, bunday jamoada hatto tajribasiz o'qituvchi ham ko'p yutuqlarga erishishi mumkinligini ta'kidladi va agar o'qituvchilar yaxlit ijodiy jamoaga birlashtirilmasa, hatto tajribali va ijodkor o'qituvchi ham ishda yuqori natjalarga erisha olmasligi mumkinligini aytib o'tadi.

Jamoada ijodiy muhit yaratish har bir o'qituvchi ning individual xususiyatlari, imkoniyatlari va qobiliyatlarini yaxshi bilishni talab qiladi. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchining ijodiy qobiliyatini rivojlanirishda asosiy rolni uning kasbiy faoliyati va o'zini takomillashtirish istagi egallaydi. Qobiliyatlarning rivojlanishi har bir o'qituvchi egallashi kerak bo'lgan pedagogik mahorat va qobiliatlarga bevosita bog'liqdir. Ma'lumki, aslida pedagogik faoliyat tabiatan ijodiy xususiyatga ega. O'qituvchi faoliyatida kasbiy mahorat va ijodkorlik o'rta sidagi bog'liqlik qanday? Ehtimol, bu tushunchalar umuman sinonimdir? Ijodkorlik odatda jarayon sifatida tavsiflanadi, uning natijasi yangi moddiy yoki ma'naviy qadriyatlarni yaratishdir. Yangilik mezoni ob'ektiv tarkibga (ma'lum bir bilim sohasi uchun yangi) va sub'ektivlikga (shaxs uchun yangi - faoliyat sub'ektiga) ega bo'lishi mumkin. Agar fikrlash jarayonida ijod ustunlik qilsa, u holda u o'zini tasavvur sifatida namoyon qiladi (K.K.Platonov). O'qituvchining kasbiy mahorati ijodkorlik bilan chambarchas bog'liqdir. Biroq, bu tushunchalar sinonim emas: kasbiy vakolatli harakatlar o'qituvchining ijodkorligi natijasi bo'lishi shart emas. O'qitishda ijodkorlik ko'pincha barcha kasalliklarga qarshi davo sifatida, reproduktiv (reproduktiv) faoliyat uchun joy qoldirmaydigan dominant sifatida qaraladi. Reproduktiv faoliyat, qoida tariqasida, faqat tan olinadi istalmagan, ammo ijodkorlikka o'tish. Pedagogik faoliyatda reproduktivlikning ko'p darajali tuzilishga ega ekanligi haqiqatan ham kam baholanadi: bilimlarni noaniq qayta aytib berishdan tortib, ko'plab tashqi omillarni hisobga olgan holda materialni moslashtirish qobiliyatigacha. Reproduktivlik - bu o'zgaruvchan sharoitlarda o'zlarining pedagogik faoliyatini tiklash qobiliyatini va anglatadi. Pedagogik ishning ustasi - bu psixologik-pedagogik va dolzarb mavzudagi yuqori malakali mutaxassis bo'lib, u kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni yuqori darajada qayta ishlab chiqarishga qodir shaxsdir.

O'qituvchining kasbiy mahorat darjasini uning malakasiga (pedagogik, ijtimoiy psixologik, differentials-psixologik), shuningdek, kasbiy va pedagogik fikrlashning rivojlanish darajasiga bog'liq. Pedagogik ijodkorlik yuqori kasbiy va pedagogik kompetensiyaga asoslangan bo'lsa samarali bo'ladi. Afsuski, ko'p hollarda bu kompetentsiya mavjud emas, bu didaktogen omillarga olib keladi. Haqiqiy pedagogik

ijodkorlik yangilikning sub'ektiv emas, ob'ektiv mezoniga, ijodiy faoliyat natijalariga mos keladi. Pedagogik ijodkorlikni tushunishda, agar kimdir ob'ektiv mezonga riosa qilsa, bu mezonga o'n minglab o'qituvchilardan faqat bir nechta javob beradi degan fikr paydo bo'lishi mumkin. Ammo bu noto'g'ri. Ushbu keng tarqalgan xato natijani noto'g'ri tushunishga asoslangan. Darhaqiqat, o'qitish yoki tarbiyalashning ob'ektiv yangi texnologiyalarini yaratadigan o'qituvchi lar juda kam. Ammo allaqachon yaratilgan taniqli usul va metodlarni birlashtirgan har qanday dars, amaliy mashg'ulot ma'lum darajada ijodkorlik natijasidir. Buni ma'lum elementlardan yangi tizimni yaratish allaqachon ijodkorlikning namoyon bo'lishi bilan tasdiqlaydi. Har bir mashg'ulotni qurish va o'tkazish ijodkorlikni talab qiladi. Har qanday dars nafaqat uni amalga oshirishning ma'lum sxemalarini, balki har doim guruhning va alohida o'quvchilarning turli xil ijtimoiy-psixologik holatini, shuningdek har bir insonning o'ziga xos xususiyatlarini o'z ichiga oladi. Xulosa qilib aytganda, biz nafaqat yangi uslub va yondashuvlarni yaratadiganlar pedagogik ijodning ob'ektiv mezoniga javob berishini isbotlovchi yana bir dalilni keltiramiz. Ta'llim natijalarining ikki turi mavjud. Ulardan biri faoliyatning funktsional mahsulotlariga (mashg'ulot, usul, texnika) tegishli. Boshqasi (va asosiysi) faoliyatning psixologik mahsulotlarini (o'quvchilar shaxsidagi psixik neoplazmalar) nazarda tutadi. Boshqacha qilib aytganda, pedagogik faoliyatning assosiya va yakuniy natijasi - bu o'quvchi ning o'zi, uning shaxsiyati, qobiliyatları va malakasini rivojlantirishdir. Har bir o'quvchi shaxs sifatida ob'ektiv ravishda noyob bo'lganligi sababli, samarali pedagogik faoliyat eng qat'iy mezonga muvofiq ijodiylikdir. Ijodiy salohiyatni rivojlantirish masalasi inson psixologiyasi bilan chambarchas bog'liq jarayon sanaladi.

Kasb-hunar maktab ta'llim muassasalarida o'qituvchilarining kasbiy faoliyati va uning ijodkorlikgi muhim ahamiyatga ega. Har bir o'qituvchi o'zining ijodiy fikrashi va faoliyati orqali o'quvchilarning rivojlanishiga ma'lum darajada o'z hissasini qo'shadi. Shunday qilib ijodkorlik o'qituvchining muhim sifatlaridan biridir. Har bir darsga kirishdan oldin o'qituvchi ma'lum darajada ijodiy izlanishlar olib borishi uning kasbiy faoliyatini muvaffaqiyatini ta'minlab beradi.

Kasb-hunar maktab ta'llim hayoti katta pedagogik jarayon bo'lib juda xilma - xildir. Pedagogik nazariyaga mos kelmaydigan vaziyatlar uchrab turadi. Bu esa pedagogdan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlikni, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab qiladi.

O'qituvchining kasbiy mahorati – bu ma'lum shaxsiy (o'quvchilarni sevishi, mehribonligi, hayrixohligi va h.k) va kasbiy (bilimdonligi, javobgarlikni his qilishi, ijodkorligi eruditsiyasi va h.k.)

Kasbiy mahorat fazilatlarining yig'indisi hisoblanib, u pedagogik-psixologik, usuliy tayyorgarligida, o'quvchilarni tarbiyalashning optimal yo'llarini izlab topishida namoyon bo'ladi. Shuning uchun o'qituvchining kasbiy mahorat, bilimdonligi, zukkoligi, ijodkorligi bilan birga shaxsiy sifatlarni ham takomillashtirishni ham taqozo qiladi. Mohir, avvalo mafkuraviy tayyorgarlikka ega bo'lishi lozim. Bu deganimiz milliy qadriyatlar, urf-odatlar,